
4-SEKTOR HUDUDIDA “AYOLLAR DAFTARI” GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA KO’RSATILGAN YORDAMLAR RAQAMLARDA



4-sektor hududida “Ayollar daftari” ga kiritilgan xotin-qizlarga ko’rsatilgan yordamlar raqamlarda

4-sektorda jami “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar soni **520** nafar. Yil davomida barcha daftardagilarga 100 foiz amaliy ko’mak ko’rsatilgan.

1-toifaga kiritilgan xotin-qizlar soni **381** nafarni tashkil etadi.

2-toifa - tadbirkorlik qilish istagida bo’lgan ayollar buyicha ayollar soni 27 nafar bo’lib, bu toifadagi ayollarga turli yo’nalishlar bo’yicha kreditlar berilgan.

3, 4, 6-toifalar - boquvchisi bo’lmagan, I va II-guruh xotin-qizlar va qaramog’ida nogiron farzandlari bor xotin-qizlarga “Ayollar jamg’armasi” tomonidan 1 million 200 ming so’m dan bir martalik moddiy yordam ko’rsatildi. Jami berilgan moddiy yordam miqdori **131 million** so’m ni tashkil etadi. Bu toifalarga kiritilgan xotin-qizlar soni 112 nafar tashkil etadi.

Ijtimoiy yordamga muhtoj, I va II-guruh nogironligi bo’lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar soni **47** nafar bo’lib, sektor kesimida ro’yixatga olingan bu xotin-qizlarga bugungi kunda amaliy yordam berilib, “Ayollar daftari” jamg’armasi hisobidan **52 million so’m** mablag’ yo’naltirildi.

Qaramog’ida nogironligi bo’lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar soni **22** nafarni tashkil etadi va bu xotin-qizlarga bugungi kunda “Ayollar daftari” jamg’armasidan **26 million 400 ming** so’m mablag’ tuman Xalq banki tomonidan tarqatib berilgan.

So’x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-20 15:12:31